

## CHAKKA BO`LAGI

Chakka bo'lagi (*lobus temporalis*) bosh miya katta yarim sharlarining lateral yuzasida joylashgan. Uning lateral va medial yuzalari farqlanadi. Chakka bo'lagining lateral yuzasi peshona va tepa bo'lagidan Silviy egatchasi, ya'ni lateral egatcha (*sulcus lateralis*) orqali ajralib turadi. Chakka bo'lagida 2 ta egatcha (*s. temporalis sup et inf*) va 3 ta pushta (*g. temporalis sup, medius et inferior*) mavjud.

Chakka bo'lagining pastki bazal yuzasida lateral ensa-chakka pushtasi (*g. occipitotemporalis*) joylashgan. Undan tepada, ya'ni chakka bo'lagining medial yuzasida *g. occipitotemporalis medialis* joylashgan. Bu ikkala pushtani bir-biridan *s. occipitotemporalis* ajratib turadi. *G. occipitotemporalis medialis* dan tepada *sulcus collateralis* (uning davomi *s. rhinalis*, burun egatchasi) joylashgan. Silviy egatchasi tubida orolcha (*unsula*) yotadi.

Orolcha peshona, tepa va chakka bo'laklari bilan yuqoridan yopilgan. O'sha tomga o'xshab yopgich pushtani *operculum* deb atashadi. Orolchanning vazifasi ta'm bilish bilan bog'liq. Eshitish, hid bilish, ta'm bilish va sensor nutq, musiqal tovushlarni tahlil qilish – chakka bo'lagining asosiy funktsiyalari.

Chakka bo'lagining birlamchi maydoniga (proektsion soha) 41-maydon (Geshl pushtasi) kiradi. Geshl pushtasi yuqori chakka pushtasining tagida joylashgan va tashqaridan ko'rinmaydi. XX asrning 60-yillarida olimlar ushbu pushtani elektrod yordamida ta'sirlantirishganda "Bemor qulog'imga turli xil tovushlar eshitilyapti" deb aytgan. Aslida unga hech qanday tovush bilan ta'sir ko'rsatilmagan. Shunda olimlar "Miyaning bu qismida tovushlarni qabul qiluvchi dastlabki neyronlar joylashgan ekan" degan fikrga kelishgan va bu joyni **birlamchi eshituv maydoni** deb atashgan. Tovushlardan so'zlar va iboralar yasovchi maydonlar yuqori chakka pushtasida 22 va 42-maydonda joylashgan. Bu erni **akustik-gnostik markaz**, ya'ni Vernike markazi deb atashgan. Bu soha zararlangan, **sensor afaziya** rivojlanadi.

**Vestibulyar analizator** markazi (20 – 21-maydonlar) o'rta va pastki chakka pushtalarda joylashgan. **Hidlov va ta'm bilish** analizatori filogenetik nuqtai nazardan miyaning eng keksa qismlari – *uncus* va ammon shoxida (11-maydonlar) joylashgan. Ta'm bilish uchun shuningdek, *g. postcentralis* ning eng pastki qismi (43-maydon) va orolcha (*uncus*) javob beradi. Vernike markazi og'zaki nutqni tushunish va xotirada saqlashni ta'minlaydi. *G.temporalis superior* ning o'rta qismida (22-maydon) musiqal tovushlarni anglash markazi joylashgan.

**Eshituv agnoziyalari.** Eshituv analizatorining birlamchi maydoni, ya'ni 41-maydon zararlansa, markaziy karlik rivojlanmaydi, chunki eshituv apparatidan kelayotgan signallar ikkala yarim sharda ham qabul qilinadi. Bemor tovushlarning baland-pastligini eshitadi, biroq tovush nimaga taalluqli (suv shildirashi, qo'ng'iroq jiringlashi, eshiq g'ichirlashi) ekanligini anglamaydi. Agar suvni shirillatib oqizib qo'yib, bemordan bu nimaning tovushi deb so'ralsa, bu suvning tovushi ekanligini ayta olmaydi.

Shu erda eshituv analizatorining o'ziga xos xususiyatini aytib o'tish joiz. Neyropsixologiyada nutq tovushlari va nutqqa aloqador bo'lmagan tovushlar farqlanadi.

**1) Nutq tovushlarini analiz va sintez qilish** – harflar, so'zlar va iboralar bilan bog'liq tovushlar bo'lib, ular asosida inson o'zining va o'zgalar nutqini tahlil qiladi. Bunga chap chakka bo'lagi javobgar.

**2) Nutqqa aloqador bo'lmagan (turli shovqinlar va musiqali tovushlar)** – atrof-muhitdagi va inson nutqiga aloqador bo'lmagan tovushlar. Bunga o'ng chakka bo'lagi javobgar.

Chap va o'ng chakka bo'laklari zararlenganda bir-biridan farq qiluvchi simptomlar rivojlanadi. Chap chakka bo'lagi zararlenganda nutq tovushlarini analiz va sintez qilish buziladi, nutqqa aloqador bo'lmagan (shovqin va musiqa) tovushlarni tahlil qilish esa o'ng chakka bo'lagi zararlenganda izdan chiqadi. Chakka bo'lagi zararlenganda bemorlar tovushlar turini ham, sonini ham farqlab aytib bera olmaydi. Bu holatni A.R. Luriya *aritmia* deb atagan. Chap chakka bo'lagi zararlenganda sensor *afaziya (akustik-gnostik afaziya)*, o'ng chakka bo'lagi zararlenganda *amuziya* kuzatiladi. Sensor afaziya negizida fonematik eshituv buzilishi yotadi. Fonematik eshituv – bu nutq tovushlarini farqlay olishdir. Sensor afaziyaning asosiy belgisi – bu nutqni tushunmaslik. Sensor afaziya bemor o'z fikrini turli xil mimik harakatlar bilan ifodalashga urinadi. Ko'p so'zlaydi (logorreya).

*Amuziya* – musiqal tovushlarni anglay olmaslik, bilmaslik. Ushbu sindrom o'ng chakka bo'lagi zararlanishi uchun xos.

*Akustik-mnestik afaziya* – nutqqa aloqador bo'lgan so'zlar va iboralarni eslab qolish buzilishi sababli rivojlangan afaziya. Chunki har qanday nutq xotirada saqlab qolingan so'zlar asosida tuziladi. Bunday bemorlarda ushbu xotira jarayoni izdan chiqqanligi bois bemorda afaziya rivojlanadi. Bunday afaziya chap chakka bo'lagining mediobazal qismi zararlenganda paydo bo'ladi.

*Emotsional buzilishlar.* Chakka bo'lagining mediobazal qismi limbik sistemani tashkil qiluvchi tuzilmalar tarkibiga kiradi. Limbik sistema esa emotsional reaksiyalar uchun mas'ul. Shu bois ham chakka bo'lagining mediobazal tuzilmalari zararlansa, turli

toifadagi emotsional buzilishlar rivojlanadi. Bular – qoʻrquv, xavotir, depressiya, baʼzida eyforiya, kardiofobiya va boshqa vegetovistseral paroksizmlar.

**Manba: ©Z. Ibodullayev. Tibbiyot psixologiyasi. Darslik., 3-nashr., T.; 2019., 494b.**

**©Z. Ibodullayev. Umumiy nevrologiya. Darslik. T.; 2021., 312b.**

**© Ibodullayev ensiklopediyasi., 2022 y; ©[www.asab.uz](http://www.asab.uz)**